

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70211101 – Aktyorlik san'ati magistratura mutaxassisligining

*MALAKA TALABLARI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “1” august dagi 277 – sonli buyrug'i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1. Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	6
<b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	7
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	8
Bibliografik ma’lumotlar.....	10
<b>Kelishuv varag‘i.....</b>	11

## **1. Umumiy tavsifi**

**70211101 – Aktyorlik san’ati** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo’llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talabi **70211101 – Aktyorlik san’ati** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan bakalavriyat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.**

**70211101 – Aktyorlik san’ati** magistratura mutaxassisligi – “San’at” ta’lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiytadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy-ijodiy ishlab chiqarish birlashmalarda ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, shuningdek, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishda istiqbolli rejalarini belgilash, kasbiy ko‘nikmaga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lif muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlari;

O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tizimidagi ijodiy jarayonlar;

Davlat ya nodavlat teatrlarida, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, shuningdek, uning huzuridagi barcha teleradiokanalarda teatrlashtirilgan tomoshalar va spektakllarda obraz yaratish hamda ishtirot etish jarayonlari; ommaviy tomoshalar, estrada, sirk, kino, radio va televide niye, barcha maydon tomoshalari, konsert, shou dasturlarida ijodiy jarayonlar.

san'atshunoslikka oid adabiyotlar, qo'lyozma asarlar, arxiv hujjatlari, tasviriy va axborot materiallari, resurslar, vositalar, usul va uslublar tahlili jarayonlari;

davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'lifning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish;

ta'lifning tashkillashtirilgan ko'rinishlari, ta'lif usullari, pedagogik texnologiya, yangi informatsion texnologiya, ta'lifning texnik vositalar.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *ijodiy-ishlab-chiqarish faoliyati.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

**70211101 – Aktyorlik san'ati** magistratura mutaxassisligi Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

Ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlili qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'iga eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirot etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy-ijodiy lohiyalarni ishlab chiqish, uchrayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lif muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-Learning), mobil (m-Learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

### **Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:**

Fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

ijodiy-ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

madaniyat va san'at tizimida alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgalik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat faoliyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

ijodiy loyihalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish hamda amalga oshirish;

mehnat, moddiy va axborot resurslarining ratsional boshqaruvini ta'minlash, boshqaruvni madaniy-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiylariga mos tarzda takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash .

ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilishi lozim.

### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy-tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining assosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba va natijalarni qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

teatr muassasalari ish rejalarini ishlab chiqish, nazorat qilish va kerakli hollarda talab darajasiga moslashtirishni bilishi;

ijodiy jamoalar faoliyatini muvofiqlashtira olishi;

madaniy tadbirlar o'tkazishni tashkillashtirish jarayoniga rahbarlik qila olishi;

teatr san'ati tizimlari ish holatini doimiy nazorat qilib borishi;

tahlillar o'tkazish va kerakli hollarda ularni ish holatini muvofiqlashtirishi;

tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etishi;

madaniy tadbirlarning yangi zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va tashkillashtira olishi;

aholining madaniy dam olishini tashkillashtira olish, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash va uni targ'ib qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi;

teatr san'atiga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishni bilishi.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrler tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini

ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyatga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodи	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1200</b>	<b>40</b>	
1.01	ITM 10014	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 10012	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60	2	2
<b>Aktyorlik san'ati: estrada aktyorligi mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	EAFO'M 10012	Estrada aktyorligi fanini o'qitish metodikasi	360	12	1,2
1.04	ESMT 100114	Estrada san'ati metodologiyasi va texnologiyasi	420	14	1,2
1.05	SMK 10018	Sahnnaviy makon kompozitsiyasi	240	8	2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i>					
<i>Aktyor, estrada aktyori, pedagog-tadqiqotchi</i>					
<b>Jami</b>					
<b>Aktyorlik san'ati: qo'g'irchoq teatri aktyorligi san'ati mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	AMFO'M 100114	Aktyorlik mahorati fanini o'qitish metodikasi	420	14	1,2
1.04	BASTT 10018	Badiiy asarning sahnnaviy talqini va tahlili	240	8	1,2
1.05	QTOUIMT 100112	Qo'g'irchoq teatrida obraz ustida ishslash metodologiyasi va texnologiyasi	360	12	2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i>					
<i>Aktyor, qo'g'irchoq teatri aktyori, pedagog-tadqiqotchi</i>					
<b>Jami</b>					
<b>Aktyorlik san'ati: dramatik teatr va kino aktyorligi san'ati mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MFO'M 100112	Aktyorlik mahorati fanini o'qitish metodikasi	360	12	1,2
1.04	TSMT 100114	Teatr san'ati metodologiyasi va texnologiyasi	420	14	1,2
1.05	SMK 10018	Sahnnaviy makon kompozitsiyasi	240	8	2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i>					
<i>Aktyor, dramatik teatr va kino aktyori, pedagog-tadqiqotchi</i>					
<b>Aktyorlik san'ati: musiqali teatr aktyorligi san'ati mutaxassisligi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MFO'M 100114	Aktyorlik mahorati fanini o'qitish metodikasi	420	14	1,2,3

1.04	TSMT 100110	Teatr san'ati metodologiyasi va texnologiyasi	300	10	1,2
1.05	SMK 100110	Sahnaviy makon kompozitsiyasi	300	10	3,4
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	600	20	1,2,3
<i>Kvalifikatsiya</i> <i>Aktyor, musiqali teatr aktyori, pedagog-tadqiqotchi</i>					
3.00		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
3.01	ITMDTHQ 102336	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI 102314	Ilmiy-pedagogik ish	420	14	1,2,3,4
3.03	IA 102310	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	300	10	4
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


### Tayanch so'zlar:

Kompetensiya, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistratura mutaxassisligining asosiy o'quv rejasi va o'quv dasturlari, malaka, amaliyot, attestatsiya, aktyor, tarix, jamiyat, teatri janrlari jahon teatr san'ati maktablari, aktyorlik mahorati maktablari, teatri turlari, televideniye, ko'rsatuv, spektakl, qo'g'irchoq teatr rejissyori, qo'g'irchoq teatr aktyori, obraz yaratish, ilmiy-tadqiqotlar, tajriba, ilmiy yangilik, ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar, tadqiqotlar, ilmiy sharhlar, referatlar, ilmiy adabiyotlar, internet tarmog'i, ilmiy-ijodiy yutuqlar, ilmiy seminar, konferensiya, simpoziumlarni ilmiy-ijodiy lohiyalar, oliy ta'lim, qayta tayyorlash, malaka oshirish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lif muassasalari hamda  
kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N.B. Sayfullayev

2024-yil "

M.O.

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tadqiqotlari  
markazi

Direktor  M.R. Boltaboyev


2024-yil "01" "08"

M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi  
Ta'lif sohasini muvofiqlashtirish

Bo'lim boshlig'i  O.R. Salixov

2024-yil "01" "08"

O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri  
  
Direktor  X.H. Axunov

2024-yil "01" "08"

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali  
teatri

Direktor 

2024-yil "01" "08"

M.O.



O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri

Direktor  Z.J. Hamrayeva

2024-yil "01" "08"

M.O.

O'zbekiston davlat drama teatri

Direktor 

2024-yil "01" "08"

M.O.

